

**IMOM DORAQTNIYNING ILMUY MEROSSI**

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ ИМАМА ДАРАКУТНИ

THE SCIENTIFIC LEGACY OF IMAM DARAQUTNI

***Kenjayev Nodirbek Abdulhamidovich***

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*I-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada islom ilmi va hadis ilmining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Imom Doraqutniy (rahmatullohi alayh)ning ilmiy merosi yoritiladi. U IX–X asrlarda yashab o'tgan va hadis ilmining taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan olim sifatida tanilgan. Asarda u kishining hadislarni to'plash, ularni tahlil qilish va sanadlarni baholashdagi metodologiyasi, ilmiy tanqidga bo'lgan yondashuvi, shuningdek, fiqh, aqida va boshqa islomiy fanlardagi hissasi tahlil qilinadi. Imom Doraqutniyning eng mashhur asari — "Sunan ad-Doraqutniy" nomli hadis to'plami ilmiy asosda baholanib, uning boshqa muhaddislar bilan ilmiy munosabatlari va farqlari o'r ganiladi. Ushbu annotatsiya ilmiy-tadqiqot ishlariga, diniy ta'lif sohasiga qiziquvchi tadqiqotchilar va talabalar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Imom Doraqutniy, hadis ilmi, Sunan ad-Doraqutniy, ilmiy meros, islomiy ilmlar, hadis to'plamlari, sanad tahlili, ilmiy tanqid, aqida, fiqh, muhaddislar, ilmiy metodologiya, islom olimlari, IX–X asr islom ulamolari va hadislar ishonchliligi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается научное наследие Имама Даракутни (да помилует его Аллах), одного из крупнейших представителей исламской науки и науки хадисов. Он был известен как учёный, живший в IX–X веках и внесший неоценимый вклад в развитие науки хадисов. В работе анализируется его методология сбора хадисов, их анализа и оценки цепочек передачи, подход к научной критике, а также его вклад в фикх, ақиду и другие исламские науки. Самый известный труд Имама Даракутни - сборник хадисов "Сунан ад-Даракутни" - будет оценен на научной основе, и будут изучены его научные отношения и различия с другими мухаддисами. Эта аннотация служит полезным ресурсом для исследователей и студентов, интересующихся научно-исследовательской работой и религиозным образованием.

**Ключевые слова:** Имам Даракутни, наука хадисов, Сунан ад-Даракутни, научное наследие, исламские науки, сборники хадисов, анализ цепи, научная критика, ақида, фикх, мухаддисы, научная методология, исламские ученые, исламские ученые IX-X веков и достоверность хадисов.

**Annotation:** This article covers the scientific heritage of Imam Daraqutni (may Allah have mercy on him), one of the major representatives of Islamic science and

hadith science. He lived in the 9th-10th centuries and is known as a scholar who made an invaluable contribution to the development of hadith science. The work analyzes his methodology in collecting hadiths, analyzing them and evaluating hadiths, his approach to scientific criticism, as well as his contribution to fiqh, aqida and other Islamic sciences. Imam Daraqutni's most famous work - the hadith collection "Sunan ad-Daraqutni" is evaluated on a scientific basis, and its scientific relationships and differences with other muhaddiths are studied. This annotation will serve as a useful resource for researchers and students interested in scientific research and religious education.

**Keywords:** Imam Daraqutni, hadith science, Sunan ad-Daraqutni, scientific heritage, Islamic sciences, hadith collections, analysis of the chain of narration, scientific criticism, creed, jurisprudence, muhaddith scholars, scientific methodology, Islamic scholars, 9th-10th century Islamic scholars, and the reliability of hadiths.

**Kirish.** Imom Doraqutniy o‘z davrida hadis ilmi borasida ulamo va toliblar ko‘p murojaat qiladigan zot bo‘lganlaridek, u kishining yozgan asarlari o‘z davrida va undan keyingi davrda ham ilm ahli orasida, xususan muhaddislar orasida juda ko‘p murojaat qilinadigan asarlar hisoblanadi. U zotdan bizga qo‘p va qimmatli kitob va qo‘lyozmalar qolgan.

Bu haqida mashhur mufassir Ibn Kasir shunday deganlar; “Imom Doraqutniy buyuk hofiz, hadis fanining ustozи, juda ko‘p zotlardan hadis eshitib, ularni jamlab, kitob shakliga keltirgan va juda foydali ish qilgan<sup>1</sup>.

Imom Doraqutniyy hadis va hadis ilmi borasida juda ham ko‘p kitoblarni yozib qoldirganlar. Bu zotning kitoblarini barchasi mustaqil bo‘lib, ular orasida biror kitobning qisqartirilgan ko‘rinishi yoki sharhi mavjud emas, balki avval aytib o‘tganimizdek barchasi alohida mustaqil kitobdir. Lekin bu kitoblarning barchasi ham hozirgi kunda bizgacha yetib kelmagan. Biroq bizgacha yetib kelgan kitoblarining aksariyati chop etilgan.

**Asosiy qism.** Imom Doraqutniyning asarlarini quyidagicha o‘rganamiz.

1. Bizgacha yetib kelgan va hozirda mavjud kitoblari.

A). Chop etilgan asarlari.

B). Chop etilmagan asarlari va qo‘lyozma asarlari.

2. Bizgacha yetib kelmagan asarlari.

Xozirda mavjud va chop etilgan asarlari.

1. **“Al-ahodis allatiy xulifa fiyha Imomi doril hijra Molik ibn Anas”.**

Bu kitobni Ibn Xoyr Ishbiliy o‘zining “Fihrisot”, Imom Zahabiy “Siyari A’lomin nubalo” kitobida Imom Doraqutniya tegishli ekanligi haqida gapirib o‘tganlar.

<sup>1</sup> Ibn Saloh. Ulumul Hadis. Madina. 1972.y. B.586-587.

**2. “Ahodisus sifot”.**

Bu kitob kichkina risola bo‘lib, unda Imom Doraqutniyning Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qilingan Alloh taoloning sifatlariga oid hadislarni jamlagan. Bu kitobda keltirgan hadislarning ko‘pi imom Buxoriyning va imom Muslimning “Sahih”larida keltirilgan hadislardir. Bu kitobda hadislarni mavzularga mos qilib tartiblab jamlamagan. Unda muallif hadislarni sahif yoki zaifligiga ham e’tibor qaratmagan, ya’ni bu haqida gapirmagan. Bu risolada jamlangan hadislар soni 70 ga yaqin. Bu risola Misrdagi “Dorul-kutub” maktabasida chop qilingan.

**3. “Ahodisu Muvatto va ittifoqur ruvot ala Molik va ixtilofuhum fiyhi va ziyodatuhum va nuqsonuhum”.**

Bu kitobni Imom Molikning nasablarini zikr qilish bilan boshlaydilar. So‘ngra “Muvatto” kitobida Imom Molikdan rivoyat qilingan hadislarni roviylari bilan zikr qilgan va bu roviylarning ixtiloflari va ittifoqlari haqida batafsil gapirib o‘tgan.

**4. “Ahodisu nuzul”.**

O‘n to‘qqiz sahifadan iborat kichik hajmli risola. Bu kitobning ikkita qo‘lyozma nusxasi hozirgi kunda ham mavjud bo‘lib, uning bir nusxasi Haydaroboddagi “Usmoniya” universitetining kutibhonasida saqlanadi. Ikkinci nusxasi esa Turkiyada saqlanadi. Bu kitobda musannif Alloh taoloning dunyo osmoniga tushishi haqidagi hadislarni keltirgan.

**5. “Axboru Amr ibn Abiyd va izhoru bid’atihi”.**

Bu kitobda Imom Doraqutniy Amr ibn Abiydni Alloh taoloning zoti va uning kalomi, Qur’oni karim haqida, bid’at va xurofotlari haqidagi fikrlarini gapirgan va ularga raddiyalar bildirgan.

**6. “Al-ixvatu val axovat”.**

Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning nasablari va u zotga zamondosh bo‘lgan kishilarni tanib, ular haqida yetarlicha ma’lumot bera oladigan bu kitob o‘quvchi uchun juda manfaatli va foydali kitobdir.

**7. “Asilatul Barqoniy”.**

Imom Doraqutniy bu kitobida shogirdi Imom Barqoniyning jarh va ta’dil olimlarining bir nechalari haqida so‘ragan savollariga javob bergen.

**8. “Asilatul Hokim lid-Daroqutniy an shuyuxihi”.**

Asli qo‘lyozma nusxasi o‘n bir sahifa va har bir sahifasi taxminan yigirma besh qatorni tashkil qiladigan bu kitobda Imom Doraqutniy o‘z shayxlari haqida berilgan savollarga atroflicha javob berib o‘tgan.

**9. “Asilatus Sulamiy lid Daroqutniy.”**

Bu kitobda Imom Doraqutniy Imom Sulamiyning ba’zi roviylar haqida bergen savollariga javob bergenlar.

**10. “Istidrokot”.**

Yana bir nomi “Tatabbu”’ deb nomlangan bu kitobda Imom Doraqutniy “Sahihayn”da keltirilgan va Doraqutniyning fikricha illati bor deb aytildi hadislarni jamlagan.

### **11. “Ilzomot”.**

Hokim Abu Abdullohning “Mustadrok ala Sahihayn” kitobiga mazmun jihatdan o‘xhash bo‘lgan bu kitobda Imom Doraqutniy “Sahihayn”ning shartiga muvofiq bo‘lgan hadislarni jamlagan. Lekin ba’zi jihatlari bilan bu kitob aytib o‘tganizdek Hokim Abu Abdullohning “Mustadrok ala sahihayn” kitobidan biroz farq qiladi.

### **12. “Ta’lilot alal majruhiyna li ibn Hibbon”.**

Bu kitob Ibn Hibbonning zaif muhaddislar haqidagi kitobiga ilova va uni to‘ldirguvchi kitobdir.

### **13. “Zikru asmoi tobe’iyn va man ba’dahum mimman sohhat rivoyatuhu indal Buxoriy”.**

O‘z nomidan ko‘rinib turganidek bu kitobda Imom Buxoriy va Imom Muslimning qarashlari bo‘yicha rivoyatlari sahih deb topilgan roviylar zikr qilingan. Bu risola ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi juzda Imom Buxoriyning kitoblarida keltirilgan tobe’iyn va ulardan keyingi asr roviylari keltirilgan. Ikkinci juzda esa Muslim ibn Hajjajning kitoblaridagi roviylar haqida so‘z yuritilgan.

### **14. “Zuafo val matrukina minal muhaddisiyin”.**

Qo‘lyozma nusxasi o‘n uch sahifadan iborat bu risolada Imom Doraqutniy zaif va so‘zi olimmaydigan muhaddislar haqida bahs yuritadi.

### **15. “Mu’talaf val muxtalaf fiy asmai rijol”.**

Bu kitob haqida “Kashfuz zunun” kitobining sohibi “Mu’talaf val muxtalaf fiy asmai rijol” bu borada 385 yilda vafot etgan Imom Hofiz Abulhasan Doraqutniy juda ajoyib kitob bitgan”<sup>2</sup>, deb aytgan.

## **Imom Doraqutniyning bizgacha yetib kelgan qo‘lyozma asarlari.**

### **1. “Al-ahodisur ruboiiyyot”.**

Bu kitobda Imom Doraqutniy Imom Shofe’iydan rivoyat qilgan hadislarni keltirgan. Imom Kattoniyning aytishlariga qaraganda bu kitob hajmi jihatdan katta bo‘lib, ikki juzdan iborat<sup>3</sup>.

### **2. “Kitobul arbaiyn”.**

“Kashfuz zunun” kitobida keltirilishicha bu kitob yo‘q bo‘lib ketgan. Lekin bu kitob boshqa nom bilan aytilayotgan “Arba’una hadisan min musnadi Bariyd ibn Abdulloh ibn Abu Burda” bo‘lishi ham mumkin<sup>4</sup>.

### **3. “Hadisu Abu Umar Muhammad ibn Abbos ibn Hayavay Xazzoz”.**

<sup>2</sup> Hoji Xalifa.Kashfuz zunun. Dori Sa’odat. 1310.h.

<sup>3</sup> Muhammad Kattoniy. Risolutul mustatorrifa. Bayrut. Dorul kitob. 1400.h. B.98.

<sup>4</sup> Hoji Xalifa. Kashfuz zunun. Dori Sa’odat. 1310.h. J.1 .B. 55.

Bu kitobning uchinchi juzining bir qismini Imom Javhariy o‘zining “Zohiriya” kitobida rivoyat qilib keltirgan.

**Imom Doraqutniyning bizgacha yetib kelmagan va yo‘qolib ketgan asarlari.**

**1. “Ahodisu Molik allatiy laysat fil Muvatto”.**

Bu kitob haqida Imom Balqiyniy o‘zlarining “Mahosin” kitoblarida gapirganlar lekin bu kitobning vasfi borasida hech qanday so‘z aytmaganlar.

**2. “Ahodisul vuzu’ min massiz zakar”.**

Saxoviy “Al-e’lon bit tavbih” kitoblarida bu kitob haqida so‘z yuritganlar.

**3. “Atrofu Muvatto ibn Molik”.**

Imom Zahabiyning “Siyaru a’lomin nubalo” kitobidan boshqa o‘rinda bu kitob haqida biror zikr keltirilmagan.

**4. “Atrofu marosiylifi Muvatto ibn Molik”.**

Bu borada ham Imom Zahabiyning “Siyaru a’lomin nubalo” kitobining to‘rtinchi juz, qirq yettinchi betida so‘z yuritib bu kitobning yo‘qolib ketganligi haqida aytildi.

**5. “Kitabul amoliy”.**

Bu kitob ham yo‘q bo‘lib ketgan kitoblar turkumiga kiradi.

**6. “Tarixu zobiyyin”.**

Doktor Akram o‘zlarining “Mavoridul xatib” kitoblarining 376-sahifasida bu kitob haqida aytib o‘tgan.

**7. “Tashiful muhaddisiyn”.**

Ibn Xoyr bu kitob haqida “imom Doraqutniy muhaddislarni tekshirish borasida juda ham foydali bir kitob ta’lif qilgan”, deb aytganlar<sup>5</sup>.

**8. “Kitabul jahri bil basmalah”.**

Imom Doraqutniyning o‘zлари bu kitob borasida “Sunan” kitoblarining birinchi juz, uch yuz o‘н birinchi sahifasida shu boradagi hadislarni zikr qilish mobaynida gapirib o‘tadilar.

**9. “Zikru man ruviya anish-Shofeyi”.**

Abu Ishoq Sheroziy bu kitobni imom Doraqutniyga tegishli ekanligi haqida aytganlar.

**10. “Zaylun ala kitobi tarixul kabir lil Buxoriy”.**

Bu ta’liflari bilan Imom Doraqutniy Imom Buxoriyning “Muhammadiyyin” bobiga to‘ldirishlar kiritgan.

**11. “Kitobul qiroat”.**

<sup>5</sup> Ibni Nadiym. Fihrisotu ibn Nadiym. Bayrut.Dorul ma’rifa.1398. B.14.

Mo‘jaz va kichik hajmga ega bo‘lgan bu kitob o‘ziga qiro’atning usul va qoidalarini jamlagan birinchi kitobdir va Imom Doraqutniydan keyingi qiro’at Imomlariga bu yo‘nalishda ijod qilishlari uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

**12. “Al-qazo bil yamiyn ma’ash shohid”.**

Imom Saxoviy bu kitobning hadis borasida ekanligini ta’kidlaganlar<sup>6</sup>.

**13. “Kitobul masojid”.**

Uning hozirda mavjud ekanligi haqida biror o‘rinda zikr qilinmagan. Lekin “Hidoyatul-orifiyn” kitobining muallifi bu kitobni Imom Doraqutniyga tegishli ekanligini aytib o‘tgan.

**15. “Musnadi Abi Hanifa”.**

Xatib Bag‘dodiyning aytishlaricha bu kitobni imom Molik Doraqutniyga nisbatini bergen.

**16. “Al mudabbij”.**

Bu so‘z muhaddislarning istelohiy atamasi bo‘lib, yaqinlar ya’ni, qarindoshlarni bir-biridan hadis rivoyat qilishiga aytildi. Bu kitobni Ibn Hajar imom Doraqutniyga nisbatini bergen<sup>7</sup>.

**17. “Ilalul vorida fil ahodisin nabaviyyah”.**

Asli “Ilal” nomi bilan mashhur bu kitob hajmi jihatdan bir munkha katta kitob bo‘lib o‘n bir juzdan iborat. Bu kitob borasida imom Balqiyniy quyidagicha gapirganlar; “Ilal turkumidagi kitoblarning eng yaxshisi Hofiz ibn Madiyniying kitobi, shuningdek, Ibn Abiy Hotamning kito bi, lekin ularning eng mukammali Hofiz imom Doraqutniyning kitobidir”<sup>8</sup>. Imom Zahabiyning aytishicha “agar hozirda mavjud “Ilal” kitobini imom Doraqutniy yoddan yozgan bo‘lsa, bu juda ham buyuk ish va bu sababli u insonni dunyoning eng hifzi kuchli kishisi deb aytish mumkin”<sup>9</sup>.

Imom Doraqutniy hadislarning illatini bilish borasida keng ilmga ega bo‘lgan. U kishining “Ilal” kitobi yuqorida aytib o‘tganimizdek illat borasida yozilgan avvalgi va keyingi kitoblarning eng mukammalidir.

Ilal kitobining asli illati bor bo‘lgan hadislar bo‘yicha Doraqutniyga berilgan turli xil savollardan iborat. Ko‘pincha Doraqutniy bu savollarga Alloh bildirganicha ba’zida batatsil, ba’zida qisqa qilib javob bergen. Bularning barchasi izoh talab qilinadigan o‘rinlarga bog‘liq. Bu hadislar «so‘raldi» bilan boshlanib, so‘ngra savolga bog‘liq hadis bilan davom ettirilib, keyin esa uning davomidan «dedi» keltirilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob beriladi.

**Xulosa.** Ko‘rib turganingizdek Imom Doraqutniy hadis ilmi va unga bog‘liq bo‘lgan ilmlarga tegishli bo‘lgan oltmishdan ziyod asarlarni yozib qoldirganlar. Bu esa u zotning ilmga va uni tarqatishga bo‘lgan rag‘batlarining natijasi va samarasidir.

<sup>6</sup> Shamsiddin Saxoviy. Fathul mug‘iys. Madina. 1938.y. J.2 B.343.

<sup>7</sup> Ibni Hajar. Nuzhatun nazar. Madina.maktabatul ilmiya. B. 60.

<sup>8</sup> Balqiyniy. Mahosinul istiloh. Dorul kutub. 1974.y.

<sup>9</sup> Zahabiy. Siyaru a’lomin nubalo. Bayrut. Muassasatur risola. 1401 h. J.10. B.523.

E’tiboringizni yana bir bor kitoblarning sarlavhasi va mazmuniga qarating natijada bu Imomning hadis, sanad, jarh va ta’dil borinki, aytib o’tganimizdek hadisga bog‘liq barcha ilmlarda tengi yo‘q bo‘lganini yana bir bor his qilasiz.

**Foydalilanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati**

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent.TIU, 2007.
2. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Oltin silsila. Hilol nashr. 2013.
3. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot.Toshkent-2008.
4. Zoyfulloh Rohiyliy. Imom abul Hasan Doraqutniy va osoruhul ilmiyya. –PDF. Variant 2000.
5. Muhammad Kattoniy. Risolatul Mustatorifa. –Bayrut. Dorul kitob ilmiyya.1400h.
6. Ibn Saloh.Ulumul hadis. –Misr. Dorul kitob.1974.
7. Shamsiddin Saxoviy. Fathul mug‘iys. –Madina.1978.
8. Ibn Nadim. Fihrasot. –Bayrut. Dorul ma’rifa.1398h
9. Hoji Xalifa. Kashfuz zunun. –Dorus sa’odat. 1310h.
10. Zahabiyy. Siyari a’lomin nubalo. –Bayrut. Muassasatur risola.1401h.